



FOYDANI SOLIQQA TORTISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

PhD, dots. **Yangiboyev Husniddin**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0007-7269-4418
h.yangiboyev@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada foydani soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish masalalari muhokama qilingan. Foyda hamda foyda solig'iga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta'riflar keltirilgan. Foydani soliqqa tortish metodologiyasiga ilmiy xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: soliqqa tortish, soliq organlari, soliqlar, foyda, foyda solig'i, soliq stavkasi, sof foyda, xarajatlar, daromadlar, tahlil.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ПРИБЫЛИ

PhD, доц. **Янгибоев Хусниддин**
Ташкентский государственный
экономический университет

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования методологии налогообложения прибыли. Приводятся определения прибыли и налога на прибыль, данные учёными-экономистами. Даны научные выводы и предложения по методологии налогообложения прибыли.

Ключевые слова: налогообложение, налоговые органы, налоги, прибыль, налог на прибыль, налоговая ставка, чистая прибыль, расходы, доходы, анализ.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF PROFIT TAXATION

PhD, assoc. prof. **Yangiboyev Husniddin**
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article discusses the issues of improving the methodology of profit taxation. The definitions of profit and profit tax given by economists are presented. Scientific conclusions and proposals are given for the methodology of profit taxation.

Keywords: taxation, tax authorities, taxes, profit, profit tax, tax rate, net profit, expenses, income, analysis.

Kirish.

O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va uning huquqiy himoyasini kuchaytirish — amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy strategik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishi — milliy iqtisodiyot taraqqiyotining tayanch omilidir. Bu boradagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatda muhim fiskal vositalardan biri sifatida foyda solig'i muhim o'rin egallaydi. Foyda solig'i iqtisodiy-moliyaviy kategoriya sifatida mamlakatda iqtisodiy o'sish va barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu soliq turi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda, ularni moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirishda va iqtisodiy strategiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, foyda solig'i orqali shakllanadigan moliyaviy munosabatlar xo'jalik subyektlari darajasida ham muhim ahamiyat kasb etib, bir tomondan, davlat byudjeti barqarorligini ta'minlashga, ikkinchi tomondan esa, xo'jalik yurituvchi subyektlar manfaatlarini huquqiy va iqtisodiy himoya qilishga xizmat qilmoqda. Shu ma'noda, foyda solig'i nafaqat byudjet daromadlarining asosiy manbalaridan biri sifatida, balki investitsiya muhitini yaxshilash, biznes yuritish xarajatlarini tahlil qilish, daromadlarni adolatli taqsimlash va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Foyda solig'ini ilmiy o'rganishda asosiy masalalardan biri - uning soliqqa tortish bazasini to'g'ri aniqlash bo'lib hisoblanadi. Foyda solig'ining summasini hisoblash ko'p ko'rsatkichlarni o'rganishni talab etadi. Bu ko'rsatkichlar va ularning har tomonlama bir biri bilan bog'liqligi, foyda solig'i summasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagi ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatadi, ya'ni mahsulotni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotning tannarxi, daromadlar, xarajatlar, moliyaviy faoliyatning daromadlar va xarajatlari, favqulodda olingan foyda va zarar, foyda solig'ining hisobot davridagi stavkasi va boshqa omillar. Foyda soliqlarining byudjetga o'z vaqtida tushib turishini ta'minlashning mohiyatini aniqlashda, eng avvalo, tayanch nuqtani aniqlab olish muhim. Ana shunday tayanch nuqta sifatida foyda soliqlarining mavjudligi va ularning undirilish zarurligi xizmat qilishi mumkin.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, foyda solig'i xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatidan olinadigan soliqlar ichida eng adolatlidir. Chunki, mazkur soliq tadbirkorlik sub'ektining jami daromadlaridan faoliyatda amalga oshirilgan barcha sarf-xarajatlari chegirib tashlanishi yo'li bilan aniqlanadigan haqiqiy foydaga nisbatan qo'llaniladi. Boshqacha qilib aytganda korxona o'z xo'jalik faoliyati yakunlariga ko'ra foyda bilan chiqsagina soliq to'laydi. Tadbirkorlik sub'ektlari daromadlariga nisbatan qo'llaniladigan boshqa soliqlar, masalan, aylanmadan soliq bunday xususiyatga ega emas. Demak, korxonalarni adolatli soliqqa tortishning eng samarali mexanizmi foyda solig'idir.

Foydani ilmiy asoslangan holda oqilona soliqqa tortishni tashkil etishga erishgan barcha xo'jalik sub'ektlari tomonidan markazlashtirilmagan jamg'armalarni tashkil etishni to'la darajada shakllantirilishiga imkoniyat yaratadi. Yuridik shaxslar qanchalik samarali faoliyat yuritisa, ularning moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati, foydasi va soliq ajratmalari yig'indisi shunchalik ko'p bo'ladi (Лабынцев, Цепилова, 2013).

Bunday holatlarning yuzaga kelish mumkinligi moliyaviy natijalarni tashkil etishdagi o'zgarishlarni hisoblash, taqsimlash va qayta taqsimlash xarajatlar bilan real foyda natijalari o'rtasidagi nisbat ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'sishi, qolaversa ulardan soliq stavkalarini aniqlashda foydalanish mumkinligi haqida o'ylab ko'rishga sabab bo'lmoqda.

Foyda – bu tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlarining so'nggi moliyaviy natijasi bo'lishi bilan birga, respublika va mahalliy budjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi (Haydarov, 2007).

Narxlar barqaror bo'lganda foyda dinamikasining o'sishi korxonaning samarali faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi. Foyda hajmining o'sishi korxonaning moliyaviy qudrati, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish fondini tashkil etish hamda ishchi-xizmatchilarni moddiy rag'batlantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Nobel mukofoti sovrindori, ingliz iqtisodchisi Xiks (1931) foydani ma'lum bir vaqt oralig'ida ishlatish mumkin bo'lgan va davr oxirida davr boshiga nisbatan ijobiy qoldiqqa ega bo'lishi lozim bo'lgan ko'rsatkich deya ta'kidlaydi.

Pokropivnyy (2017) fikriga ko'ra foyda – korxona ishlab chiqarishi va savdo faoliyatiga qilingan xarajatlardan keyingi qoladigan tushumning bir qismi deb hisoblaydi.

Haydarovning (2007) fikriga ko'ra foyda – bu tijorat asosida faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektlarining so'nggi moliyaviy natijasi bo'lishi bilan birga, respublika va mahalliy budjetlar daromadining asosiy moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Alievaning (2011) fikriga ko'ra foydani tadbirkorlik faoliyati xizmatlari uchun to'lov, mahsulotlarning innovatsion turlarini joriy qilish, ishlab chiqarish jarayonini o'zgartirish, shuningdek iqtisodiy risk uchun mukofot deb hisoblaydi.

Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining oshirilishi soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishlariga ko'maklashishda doimo asosiy omil sifatida ko'rilgan (Боклачева, 2010). Foyda solig'ining umumiy darajasini oshirish uchun yuqori savodxonlikni va soliq to'lovchilar bilan do'stona munosabatlarni shakllantirish, ularga soliq to'lash bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyatlarini bajarishga yordam berish uchun hokimiyat bu borada yangi progressiv shakl va usullarni topishda faol ish olib borishi kerak.

Xudoyqulovning (2019) qayd etishicha, korxonalarning foydasidan olinadigan soliq o'zida rag'batlantiruvchilik funksiyasini aks ettirib, soliq to'lovchilarning moliyaviy faoliyatiga tez ta'sir etuvchi soliqlardan hisoblanadi. Foyda solig'i bo'yicha soliq organlari bilan soliq to'lovchilarning o'zaro samarali hamkorligi ko'rsatilayotgan soliq xizmati sifatini ta'minlashi zarur deb hisoblaymiz. Shuningdek foyda solig'ining to'lashni tushunarli va soddaligining oshishi davlat xarajatlari shaffofligi, xizmatlar sifati va ularning iqtisodiy samaradorligiga bog'liq bo'lsa, foyda soliq to'lovchilarning soliq qonunlariga rioya qilishi foyda soliqlarning tushunarli va sodd bo'lishiga olib keladi.

Foyda soliq metodologiyasi ilmiy o'rganishda asosiy masalalardan biri uning soliqqa tortish bazasini to'g'ri aniqlash bo'lib hisoblanadi. Foyda solig'ining cummacini hisoblashda ko'p ko'rsatkichlarni o'rganishni talab etadi. Bu ko'rsatkichlar va ularning har tamonlama bir biri bilan bog'liqligi foyda solig'i cummaciga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga quyidagi ko'rsatkichlar ta'cir ko'rsatadi, ya'ni mahsulotni sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotning tannarxi, daromadlar, xarajatlari, moliyaviy faoliyatning daromadlar va xarajatlari, favqulodda olingan foyda va zarar, foyda solig'ining hisobot davridagi stavkaci va boshqa omillar.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotimiz metodologiyasi bo'lib, foydani soliqqa tortish metodologiyasini iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Foydani soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar.

Foyda – tovarlar va xizmatlarni sotishdan olingan daromad bo'lib, tovarlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlariidan ortgan qismining pul shakldagi ifodasidir. Foydaning bir qismi soliqlar orqali bevosita davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadi. Foyda solig'i – jami daromaddan, daromadni olish bilan bog'liq xarajatlarni, ya'ni isbotlangan va hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlarni shuningdek, Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliq

to'lovchi tomonidan yuzaga keltirilgan zararni chiqarib tashlash bilan hisoblangan soliq tushuniladi.

Foyda solig'i stavkasini yillar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak Ўзбекистон Республикасида 1997-yilda 36,0 foiz bo'lgan bo'lsa, 2000-yilda 31,0 foiz, 2005-yilda 15,0 foiz, 2010-yilda 9,0 foiz, 2015 va undan keyingi yillarda 7,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2019-yil 1-yanvardan boshlab foyda solig'i stavkasi 14 foizdan 12 foizga pasaytirildi. 2020 - 2025-yillarda bu ko'rsatkich 15,0 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiyotni soliqlar vositasida boshqarishda ilg'or xorij tajribalarini o'rganish ham katta ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda foydani soliqqa tortish borasida fikrlar asosan korporatsiya solig'i doirasida kechadi. Ushbu mamlakatlarda korporatsiya solig'i asosiy soliq turi sifatida e'tirof etib kelinadi.

Jumladan foyda solig'i stavkasi Rossiya Federatsiyasida 20 foiz, Belarusda 18 foiz, Qozog'istonda 20 foiz, Ozarbayjonda 20 foiz, Latviyada 20 foiz, AQSHda 21 foiz, Fransiya 31 foiz etib belgilangan.

Jahon mamlakatlari mamlakat byudjetini shakllantirish xususiyatlaridan kelib chiqib, o'ziga xos soliq stavkalarini belgilab qo'yadilar. Ayrim davlatlar tadbirkorlarni ko'paytirish va ularni rag'batlantirish nuqtai-nazaridan soliq stavkalarini pasaytirsalar, ba'zi davlatlar Davlat byudjetini to'ldirish maqsadida soliqlarni oshirishga harakat qiladilar. 2022-yilda 2021-yilga nisbatan bir qator mamlakatlar korporativ soliq stavkalarini o'zgartirdilar (1-jadvalga qaralsin). Aksariyat mamlakatlar korporativ soliq stavkalarini pasaytirishga harakat qildilar.

1-jadval

2022-2023-yillarda ayrim jahon mamlakatlarida korporativ soliq stavkalari o'zgarishi, foizda

T/r	Mamlakat	2022 yil	2023 yil	2022 yilda 2023 yilga nisbatan o'zgarishi
1.	Afrika			
1.1	Gvineya	35	25	-10,0
1.2	Marokko	31	32	+1,0
2	Osiyo			
2.1	Bangladesh	30	27,5	-2,5
3	Yevropa			
3.1	Avstriya	25	24	-1,0
3.2	Belarus	18	20,0	-2,0
3.3	Buyuk Britaniya	19	25	+6
4	Okeaniya			
4.1	Fransiya Polineziyasi	27	25	-2,0
5	Janubiy Amerika			
5.1	Aruba	25	22	-3,0
5.2	Kolumbiya	30	28	-2,0

Manba: Интернет ресурс: <https://taxfoundation.org/data/all/global/corporate-tax-rates-by-country-2023/#Changes>. Солиқ жамғармаси (Tax Foundation) сайти маълумотлари.

1-jadvaldan ko'rinadiki, korporativ soliq stavkasi 2023-yilda yuqori o'sishi Buyuk Britaniyada (6 foizga oshgan) va yuqori pasayishi 2023-yilda Gvineyada (10,0 foizga pasaygan) va Arubada (3,0 foizga pasaygan) ko'rish mumkin. Albatta, mamlakatlar korporativ soliq bo'yicha stavkalarining o'zgarishini o'z soliq siyosatlari va mamlakatdagi ichki vaziyatdan kelib chiqqan holda o'zgartirishga harakat qiladilar. Ushbu mamlakatlar korporatsiyalar olayotgan foydaning sezilarli qismi davlat byudjetiga tushishini nazarda tutadi.

Soliq siyosatlari doirasida bir qator mamlakatlar yuqori soliq stavkalarini o'rnatishga harakat qilishadi va bunda hattoki 50 foizlik soliq stavkasi amal qiluvchi davlatni ham ko'rish mumkin (2-jadvalga qaralsin).

2-jadvalda ko'rish mumkinki, Afrika qit'asining Komor orollarida korporatsiya solig'i 50,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, Shimoliy Amerika qit'asining Puerto-Riko davlatida korporatsiya solig'i 37,5 foizni tashkil etgan bo'lsa Yevropa qit'asining Portugaliya davlatida korporatsiya solig'i 31,5 foizni ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

**2023-yilda jahonda yuqori korporatsiya solig'i stavkasiga
ega mamlakatlar, foizda**

T/r	Mamlakat	Kontinent	Soliq stavkasi
1.	Komor orollari	Afrika	50
2.	Peerto-Riko	Shimoliy Amerika	37,5
3.	Surinam	Afrika	36
4.	Argentina,	Janubiy Amerika	35
5.	Chad, Kolumbiya, Kuba, Ekvatorial Gvineya, Malta, Sudan,	Afrika	35
6.	Sint-Marten	Shimoliy Amerika	34,5
7.	Amerika Samoasi	Okeaniya	34
8.	Braziliya, Venesuela	Janubiy Amerika	34
9.	Kamerun,	Afrika	33
10.	Sent-Kits va Nevis	Shimoliy Amerika	33
11.	Morokko, Mozambik, Namibiya	Afrika	32
12.	Portugaliya	Yevropa	31,5

Manba: Интернет ресурс: <https://taxfoundation.org/data/all/global/corporate-tax-rates-by-country-2023/#Changes>. Солиқ жамғармаси (Tax Foundation) сайти маълумотлари.

Ayrim mamlakatlar yuqori stavkalardan farqli ravishda investitsiyalarni jalb qilish nuqtai-nazaridan past stavkali korporatsiya solig'ini o'rnatadilar (3-jadval). Past stavkali soliqlarni o'rnatish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib, mamlakat soliq siyosatining tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyatga ega. Bunday mamlakatlar tarkibi qoloq va rivojlanayotgan mamlakatlardan tashkil topgan.

Foyda solig'i bo'yicha ma'muriyatchilikni takomillashtirishda eng muhim masalalardan biri — bu soliqqa tortish bazasini aniq va asosli belgilash hisoblanadi. Chunki foyda solig'i summasini hisoblash murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, u soliq solish obyekti bo'lgan foydaning aniqligiga bevosita bog'liqdir.

Foyda solig'i summasini hisoblab chiqishda bir qator iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar o'zaro o'zaro aloqadorlikda tahlil qilinadi. Ularning har biri korxonaning umumiy foyda miqdoriga hamda soliq majburiyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Soliq ma'muriyatchiligi nobarqarorligi nafaqat hukumatning, shu bilan birga tartibga solib turuvchi boshqaruv organlarining ham asosiy muammosi hisoblanadi. Foyda solig'i yig'iluvchanligi barqarorligi muvaffaqiyatli biznesni yuritish va korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim shartidir. Byudjet daromadlariga ta'sir etuvchi omillarning biri bu korxonalar raqobatbardoshligining soliq to'lovlarining darajasiga ta'siri bo'lib hisoblanadi.

Korxonalar har qanday holatda foydaning bir tekisda o'sishini ta'minlash yo'lida tinmay harakat qilishi zarur. Bu orqali esa foydaning harakatlanish trayektoriyasidan kelib chiqib, uning mazmun-mohiyatini tushunib yetish mumkin. Eng muhimi, foydani soliq obyekti sifatida ushlab turishga real zamin yaratadi.

**2023-yilda jahonda 20 ta past korporatsiya solig'i stavkasiga
ega mamlakatlar *, foizda**

T/r	Mamlakat	Kontinent	Soliq stavkasi
1.	Barbados	Shimoliy Amerika	5,5
2.	Turkmaniston	Osiyo	8
3.	Vengriya,	Yevropa	9
4.	Andorra, Bosniya va Gersegovina, Bolgariya, Kosovo, Makedoniya	Yevropa	10
5.	Qirg'iziston, Qatar	Osiyo	10
6.	Paragvay	Janubiy Amerika	10
8.	Sharqiy Timor	Okeaniya	10
9.	Xitoy, Makao	Osiyo	12
10.	Moldova	Yevropa	12
11.	Kipr, Gibraltar, Irlandiya, Lixteynshteyn, Albaniya	Yevropa	12,5

* **Korporativ soliqning nol stavkali davlatlarini hisobga olmagan holda**

Manba: Интернет ресурс: <https://taxfoundation.org/data/all/global/corporate-tax-rates-by-country-2023/#Changes>. Солиқ жамғармаси (Tax Foundation) сайти маълумотлари.

Shuni esda tutish lozimki, foyda (daromad) boshqa soliq obyektlariga nisbatan o'ziga xos bir xususiyati foydani soliq obyekti sifatida pasayishi kuzatilsa, byudjet daromadlari foyda solig'idan yo'qotishlarga duch kelishi mumkin, ammo korxonaning boshqa faoliyatidan olinadigan majburiy to'lovlarning o'sishiga imkoniyat yaratib beradi. Bu esa foydani soliq obyekti sifatida ushlab turishga zamin yaratadi.

Keltirilgan 4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, foyda solig'ining dinamik pasayishi korxonadan boshqa soliq turlari bo'yicha byudjetga tushumni pasaytirmagan.

Agarda 2020-yilda 2019-yilga nisbatan byudjet daromadi faqat foyda solig'i hisobidan 67 490,0 mln. so'm pasaygan bo'lsa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan 5 152,7 mln. so'mga pasaygan, qo'shilgan qiymat solig'i esa 400 305,3 mln. so'mga kamaygan, aksiz solig'i esa 52 683,7 mln. so'mga oshgan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq 482,6 mln so'mga pasaygan, mol-mulk solig'idan 7 415,8 mln. so'mga pasaygan, yer solig'idan 1 114,1 mln. so'm, ko'proq mablag' tushishi ta'minlangan.

«Fargona neftni qayta ishlash zavodi» MCHJ to'lagan soliqlar dinamikasi, mln. so'mda

t/r	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Sof foyda	457 193,4	12 144,7	23 087,3	19 283,6	469 631,3
2.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	84 386,0	16 896,0	6 374,5	34 760,9	68 429,5
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	36 461,7	31 309,0	29 541,3	23 882,8	22 600,3
4.	Qo'shilgan qiymat solig'i	479 654,5	79 349,2	259 058,6	103 195,5	64 740,0
5.	Aksiz solig'i	46 504,3	99 188,0	179 717,1	158 414,8	138 941,8
6.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 342,2	4 859,6	3 211,6	9 829,0	8 666,2
7.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	12 473,7	5 057,9	4 071,8	9 541,7	4 113,9
8.	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	10 681,9	11 796,6	18 428,8	26 675,4	20 797,3

Manba: «Fargona neftni qayta ishlash zavodi» MCHJ 2018-2023 yillardagi moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Agarda 2023-yilda 2022-yilga nisbatan byudjet daromadi faqat foyda solig'i hisobidan 33 668,6 mln. so'mga oshgan bo'lsa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan 1 282,5 mln. so'mga pasaygan, qo'shilgan qiymat solig'i esa 38 455,5 mln. so'mga, aksiz solig'i esa 19 473,0 mln. so'mga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliقدan 1 162,8 mln. so'mga, mol-mulk solig'idan 5 427,8 mln. so'mga, yer solig'i 5 878,1 mln. so'mga kamroq mablag' tushishi ta'minlangan.

Mamlakat iqtisodiyotni rivojlantirish asosida yangi milliy modelga mos ravishda rivojlantirish maqsadida respublikamizda salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, jumladan, Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasiga asosan, foyda solig'iga yangicha mazmun kasb etish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yaqqol ko'rinmoqda. Masalan, keyingi yillarda foyda solig'i mexanizmini takomillashtirish natijasida erishilayotgan yutuqlar soliq munosabatlarining nufuzini, samaradorligini, byudjet daromadlarini oshirish, profitsitli byudjetni shakllantirishdagi rolini oshirmoqda, dunyo hamjamiyati oldida yanada shaffof soliq munosabatlarini shakllantirishga sababchi bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, foydani soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, 2022-yil 1-sentyabrdan so'ng ilk marotaba foyda solig'ini to'lashga o'tgan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar – keyingi yildan boshlab bir soliq davri mobaynida, jami daromad o'n milliard so'mdan oshmagan bo'lsa, yoki, 2022-yil 1-sentyabrdan keyin jami daromadi soliq davri mobaynida ilk marotaba o'n milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar – joriy soliq davri va keyingi soliq davri mobaynida jami daromad yuz milliard so'mga yetgunga qadar belgilangan foyda soliq stavkasini 50 foizgacha pasaytirish huquqi berilsin degan xulosaga kelindi hamda amaliyotga joriy qilindi. Biz bergan ushbu taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda inobotga olinib, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 337-moddasiga qo'shimchalar kiritildi. Bizni bergan taklif biznes yuritish shart-sharoitlari yaxshilanadi, shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlashga erishiladi.

Shuningdek foyda solig'i bo'yicha har oyda bo'nak to'lovlarini to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari daromadlarining ruxsat etilgan miqdori 5 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha oshirish taklifi ishlab chiqdik hamda amaliyotga joriy qilindi. Biz bergan ushbu taklif **O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining** normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda inobotga olinib, O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 29 dekabrda O'RQ-891-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 340-moddasiga o'zgartirish kiritildi. Bizni bergan taklif orqali foyda solig'i bo'yicha budjet tushumlar miqdori oshishi ta'minlanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Asen, E. (2019). *Sorporate Tax Rates around the World, 2019*. taxfoundation.org, December 10, 2019.

Haydarov N. (2007) *Soliqlar va soliqqa tortish masalalari*. – T.: Akademiya, – 54 b.

Hicks J.R. (1931) *The theory of uncertainty and profit* //Esonomica. – №. 32. – C. 170-189.

Xudoyqulov C. (2019), *Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya*. Toshkent.

Yangiboev H.A. (2023) *Administration of direct taxes and its theoretical and legal basis* journal of law and esonomics ISSN(Online): 2984-8091 SJIF Impast Fastorl: 5.913| Volume-6, Issue-4, Published |20-11-2023| <https://sirpublishers.org/index.php/jolae/article/view/62/86>.

Yangiboev H.A. (2023) Registering accounts directly with tax organizations JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN ISSN (Online):2984-6722 SJIF Impast Factor|: 5.887| Volume-6, Issue-4, Published |20-11-2023| <https://sirpublishers.org/index.php/jomb/article/view/57/76>.

Yangiboev Kh. (2021). Features of forming a direct taxation system at the modern stage. Journal of Hunan University (Natural Sciences) . Vol. 48. No. 11. (2021), pp. 1127-1135. <https://johuns.net/index.php/abstrast/193.html>.

Yangiboev X. (2021). Ways To Collect Personal Income Tax And Reduce Tax Arrears. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 12, Issue 9, August (2021) pp. 3770-3776 <https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/6382>.

Алиева С.С. (2011) Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. Автореф.дисс. на соиск. ученой степени к.э.н. –Т.: БФА, – с. 9-10.

Боклачева Е.А. (2010) Повышение уровня информационного обслуживания и взаимодействия налоговых органов с налогоплательщиками. // <https://elibrary.ru/item.asp?id=17792107>.

Лабынцев Н.Т., Цепилова Е.С. (2013) Исследование взаимосвязи бухгалтерского (финансового) и налогового учёта прибыли в России и за рубежом. //Проблемы экономики. №3. – с. 8.

Покропивный С.В. (2017) Экономика предприятия: Учебник. - Київ: КНЕУ, - 608 с.